

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING TA'LIM METODLARI

Mirzayev A'zam Xudaynazarovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiyaning o'qitish predmeti sifatidagi maxsus bilim va xarakter faoliyatlari o'qituvchidan o'qitishga xos ma'lum usullar va uslubiylar (metodlar)ni bilishni talab etadi. Ta'lim (o'qitish)ning uslublari ko'p bo'lishiga qaramasdan ularning hech biri universal emas. Ta'lim metodlarining tavsifini bilish bu usullar tarkibidan eng qulayini tanlab olishga, o'qitish vazifalarini hal qilish uchun samaralilarini ajratib olishga imkon beradi

Kalit so'zlari: Ko'rgazmalilik metodi bilan harakat faoliyatlarini tanishtirish

METHODS OF ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION LESSONS

Abstract: Specialized knowledge and motor skills in physical education as a subject require teachers to understand specific methods and techniques specific to this field. Despite the large number of teaching methods, none are universal. Understanding the descriptions of teaching methods allows one to select the most appropriate one and identify effective methods for solving educational problems

Key words: Introduction to motor exercises using the demonstration method

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: Специальные знания и двигательные навыки в области физического воспитания как предмета обучения требуют от учителя знания определенных методов и техник, специфичных для данной области. Несмотря на большое количество методов обучения, ни один из них не является универсальным. Знание описания методов обучения позволяет выбрать наиболее подходящий из них, выделить эффективные методы для решения учебных задач.

Ключевые слова: Ознакомление с двигательными упражнениями с использованием метода демонстрации.

Usul - bu pedagogning shunday ta'sir faoliyatiki, o'qitishning qandaydir ma'lum bir sharoitida ta'limning xususiy vazifalarini (yoki uning bir qismini) hal etish uchun qo'llaniladi. O'z navbatida, agar metodlar kompleksi (so'z bilan ifodalash, ko'rgazmalilik va amaliy o'rgana boshlash) orqali qo'yilgan vazifani hal qilish mumkin bo'lsa (masalan, sakrashga o'rganishini), unda metodik usullar tizimi ta'limning aniq bir sharoitida metodlarni amalga oshirish, qo'llashdek xizmatlarni

o'taydi (masalan, sakrashni ko'rsatishda profillik ko'rsatishni yoki old ko'rinishi, qolaversa, ikkala metodik usulni xam qo'llashga tug'ri keladi). Har bir metodning turli xil metodik usullari bo'lishi mumkin. Ular son-sanoqsiz darajada ko'p bo'lib, ma'lum vaqt mobaynida ayrimlari yo'q bo'lib ketsa, ayrimlarining ko'rinishlari o'zgaradi, o'qituvchining ijodiy izlanishi, faoliyati natijasida yangilari ham vujudga kelib, amalda qo'llaniladi. Ko'pincha o'qitish darajasiga xos metodik usullar hajmini talabalar (trener) tomonidan ko'p bilish orqaligina farqlash mumkin.

Tajribasiz o'qituvchilarda ba'zan uslubiyat - metodik usulning tashqi alomatlarini o'zida mujassamlagandek ko'rinishi mumkin. Masalan: ayrim mashqlarni bo'laklarga ajratib o'rgatish ularning tizimini yarata olmaslikka olib keladi, natijalar kutilganday bo'lmaydi. Bu usul ko'p holda metodik usulga o'xshash bo'ladi.

Ta'limning metodlariga qo'yilgan umumiy talablar. Har qanday konkret xolatda u yoki bu metodni maqsadga muvofiq xolda qo'llash qator talablarga rioya qilishni taqazo etadi:

1. Usulning ilmiy asoslanganligi (oliy nerv faoliyati).
2. Qo'yilgan vazifaga o'qitishning muvofiqligi.

Aniq vazifalarning oldindan belgilanmasligi ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash imkonini bermaydi. Misol, darsda "kozyol"dan oyoqlarni kerib tayanib sakrashni o'rgatish (o'qitish) vazifasi qo'yilgan bo'lsa, metodni tanlash mumkin bo'lmay qoladi (bo'laklarga ajratish bilan va xarakatni to'la bajarish bilan o'qitish metodlariga tayanish mumkin xolos). Nisbatan aniq vazifa, masalan, "kozyol"dan oyoqlarni sakrashda qo'llar bilan "depsinish"ni o'rgatish qo'yilgan bo'lsa, mashqni bo'laklarga ajratish bilan o'rgatish metodini qo'llashga imkoniyati paydo bo'ladi.

3. Ta'limning tarbiyalash xarakterini shakllantirish. Xar bir tanlangan metod aynan shu xarakat faoliyatini o'qitishning faqat effektli jarayonini ta'minlash nuqtai nazaridagina baholanmay, tarbiya vazifalari pozitsiyasi talabiga qarab ham baholanishi zarur.

4. Metodlarning qo'llanishi ta'lim sistemasidagi barcha prinsiplarning muvofiqligi va amalga oshirilishiga tayanishi lozim. Metodni alohida olingan prinsipi bilan aloqasini bir tomonlama izohlash, tushuntirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan: agar o'qituvchi ko'rsatish metodini qo'llagan bo'lsa, uni ko'rgazmalilik prinsipini to'la amalga oshirayapti degan xulosamiz noto'g'ri bo'ladi. Ma'lumki, bu prinsip qator metodlar tizimi orqaligina amalga oshiriladi.

5. O'quv material xususiyatining muvofiqligi.

O'qitish metodlari ma'lum darajada bo'lsa-da jismoniy mashqlarni turlariga bog'liqdir, ayrim xollarda faqat so'z bilan ifodalash metodining o'zi kifoya qilsa, uga nisbatan qiyin vazifalarda esa ko'rsatish metodini ham qo'llab yurishga to'g'ri keladi. O'ynaladigan, gimnastika, sport, turizm va shu kabi mashqlarni o'qitish o'zining xususiy metodlariga ega emas. Metodlar jismoniy mashqlarning barcha turlari uchun bir xildir. Shu bilan birga bu turlarning har qaysisi qandaydir darajada bo'lsa-da, bir xil metodik usullardan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib boshqalariga nisbatan

ozroq foydalaniladi. Bunday qaramlilik qancha kam bo'lsa o'qitish natijasi shuncha yaxshi bo'ladi.

6. O'quvchilar individi va guruhni tayyorgarligining muvofiqligidir. Masalan, ayrim xarakat faoliyatlarini o'zlashtirishda yaxshi tayyorgarlikka ega o'quvchilar uchun qismlarga ajratib o'rgatish metodini qo'llash maqsadga muvofiq emas, unga nisbatan tayyorgarligi mavjud bo'lganlari uchun esa bu faoliyatni egallashga yo'llanma beruvchi mashqlar bilan boshlash kerak bo'ladi. So'z bilan ifodalash metodidan foydalanishda o'quvchilar umumiy bilimi darajasi bir muncha yuqori bo'lsa, "viraj" bo'ylab yugurishni tushuntirishda ularni fizika soxasi bo'yicha bilimiga tayanishimiz mumkin bo'ladi.

7. O'qituvchi individual xususiyatlari va imkoniyatlarining muvofiqligi. Albatta, xar bir pedagogika ta'limning barcha metodlarini to'la hajmda egallagan bo'lishi lozim. Shunga qaramay, ba'zi o'qituvchilar bir xil metodlarni yaxshi bilishsa, ayrimlari esa boshqasini yaxshi biladilar. Jismoniy tarbiya jarayonida bu xususiyatlarni alohida hisobga olish zarur. Agar ma'lum xolatda ikki xil metoddan bir xil natija chiqishi aniq bo'lib qolsa, albatta, o'qituvchi o'zi puxta bilgan metodni qo'llashi lozim.

8. Mashg'ulotlar sharoitining muvofiqligi. Masalan, maktabdagi darslarda tirmashib chiqishga o'rgatish faqat bir-ikkita kanat mavjud holda amalga oshirilsa, xarakatni bir butunligicha to'la o'rgatish metodidan foydalanish samara bermaydi, chunki bu mashg'ulot zichligini aytarli darajada past bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunda so'zdan foydalanish metodida o'qituvchi zalning akustikasi va sport maydoning sathini hisobga olishi kerak.

9. Metodlarni turli tumanlaridan foydalanish talabi. Metodlarning hech qaysisi yagona, asosiy va universal bo'la olmaydi. Metodlarning turli xilidan foydalanganda, ta'lim samaraliroq bo'ladi. Xar bir metodning o'ziga xos yaxshi tomonlari bo'lishini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. Faqat savodsiz o'qituvchilargina ularni yomon qilishi mumkin. Ayrim pedagogik holatlarda samara berayotgan metodlar boshqa paytda umuman, yaroqsiz, xatto zararli ham bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun pedagogik jarayonda ta'limning tizimli metodlaridan o'rinli foydalanish kerak. Bu jarayonda metodlarning kuchli (o'rinli) tomonlaridan foydalanib, bo'sh (o'rinsiz) jihatlarini ajratib tanlash lozim. Bu nizom qachonki ko'rsatish tushuntirish bilan, tushuntirish ifodalash bilan, ko'rsatma va hokazolar bilan qo'shib olib borilsa, o'quv-tarbiya jarayoni amaliyotdagi ishlarda tasdiqlanadi. Shug'ullanuvchilarning barchasi uchun yaraydigan, barcha ish sharoitiga mos keladigan umuman yo'q desak, xato qilmagan bo'lamiz. Qaysi bir metodni universal metod sifatida yuqori baholasak, uni barcha o'qituvchi qo'llay boshlaydi, bu, o'z navbatida, o'qituvchi ijodkorligini chegaralab qo'yadi, o'quvchining barcha imkoniyatlaridan foydalanish imkonini bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.S.Salomov, F.A.Kerimov Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar Toshkent – 2008
2. Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiya vositalari. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona, 1999.
3. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg‘ona, 2001.
4. Yu.M.Yunusova “Fizicheskoy kultury v shkole” -2003 y
5. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. Darslik. T., Ibn Sino nashriyoti. 2002.